


KO'CHMAS MULK BOZORI TAHLILI

QISQA TAVSIF


2025-YIL IV CHORAK

Markaziy bank 2025-yil IV choragi uchun "Ko'chmas mulk bozori tahlili"ni e'lon qildi. Sharhda iqtisodiy faollik yuqori shakllanishi fonida ko'chmas mulk bozorida sezilarli jonlanish kuzatilgani qayd etiladi. Bazar faolligi ipoteka kreditlari hajmining oshishi, aholi real daromadlarining o'sishi hamda qurilish ishlari ko'lamining kengayishi bilan ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, almashuv kursi dinamikasi fonida uy-joy narxlari milliy valyutada mo'tadil shakllanib, AQSh dollari hisobida nisbatan yuqoriroq o'sish sur'atlarini namoyon etdi.

**Ko'chmas mulk oldi-sotdi
bitimlari dinamikasi, ming dona**



**Ajratilgan ipoteka kreditlari,
trln so'm**



Manba: e-notarius.uz platformasining ochiq
ma'lumotlari asosida


Manba: Markaziy bank

Ko'chmas mulk bozoridagi bitimlar faolligi 2025-yil IV choragida tezlashdi. Chorak davomida oldi-sotdi bitimlari soni 89,7 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24,5 foizga oshdi. Yil yakuniga ko'ra jami tranzaksiyalar 319,5 mingtaga yetib, yillik o'sish 15,8 foizni tashkil etdi. Bazar faolligining ortishi, asosan, ipoteka moliyalashtirish hajmining kengayishi va aholi daromadlarining yuqori o'sishi bilan izohlanadi. 2025-yil davomida ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 21,2 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 29 foizga oshdi.

Joriy yilda qurilish sektoridagi faollik turar-joy binolarining ishga tushirilishida ham o'z aksini topmoqda. 2025-yil yakunlariga ko'ra foydalanishga topshirilgan uy-joylarning

umumiy maydoni 15,9 mln kvadrat metrni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 7,2 foizga oshdi. Bunda, respublika bo'yicha Xorazm (36 foiz), Surxondaryo (6,7 foiz) va Farg'ona (6,5 foiz) viloyatlari yangi turar-joy binolarini ishga tushirilishida yetakchilik qildi.

Ikkilamchi ko'chmas mulk bozoridagi narxlar
dinamikasi, yillik, foizda



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari.

Narxlar dinamikasi valyuta kesimida turlicha shakllandi. 2025-yil yakuniga ko'ra birlamchi ko'p qavatli uy-joy bozorida narxlar AQSh dollari hisobida 5,7 foizga, ikkilamchi bozorda 7,9 foizga oshdi. So'm hisobida esa narxlar mos ravishda -1,3 va 0,7 foiz atrofida shakllandi. Ikki valyutadagi tafovut almashuv kursi dinamikasi hamda narx belgilash amaliyotining bosqichma-bosqich milliy valyutaga moslashuvi bilan izohlanadi.

Ijara bozorida yil yakunida mo'tadil o'sish tendensiyalari kuzatildi. Respublika bo'yicha ijara narxlari yil yakunida so'mda o'zgarmagan bo'lsa, dollarda 8,3 foizga qimmatlashdi.

Yer uchastkalari segmentida Toshkent shahrida yer uchastkalari narxi yillik hisobda 9,4 foizga pasaydi, bu yer taklifining hududlar kesimida tarkibiy o'zgarishlari bilan bog'liq.

Umuman olganda, 2025-yil IV choragi ma'lumotlari ko'chmas mulk bozorida faollik o'tgan choraklarga qaraganda sezilarli oshganini, ushbu tendensiya esa aholi real daromadlarining yuqori o'sishi, ajratilgan ipoteka kreditlarining ortishi hamda yuqori qurilish ishlari hajmi orqali qo'llab-quvvatlanganini ko'rsatadi. Bozorda taklif va talabning o'zaro muvozanatda saqlanib qolayotgani esa narxlarni mo'tadil shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ko'chmas mulk bozori tahlili to'liq matni bilan [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin.